



Rustambek RASULOV,
Fan va texnologiyalar universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: rustamrasulov07081995@gmail.com

DSc R.Xudoyberganov taqrizi asosida

DIALECTICAL CONTRADICTIONS BETWEEN GLOBAL PROCESSES AND NATIONAL POLITICAL IDEOLOGY IN THE CONTEXT OF DIGITAL GLOBALIZATION

Annotation

This article provides a theoretical and analytical examination of the complex dialectical relationships between national political ideology and global processes in the context of digital globalization. The study reveals the impact of digital technologies, global information flows, and transnational discourses on national ideological stability. The contradictions between national and global dimensions are interpreted not as absolute oppositions, but as sources of development and adaptation.

Key words: Digital globalization, national political ideology, global processes, dialectical contradictions, national identity, ideological sovereignty, political consciousness, digital communication, global discourse, ideological stability, political transformation.

ДИАЛЕКТИЧЕСКИЕ ПРОТИВОРЕЧИЯ МЕЖДУ ГЛОБАЛЬНЫМИ ПРОЦЕССАМИ И НАЦИОНАЛЬНОЙ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ИДЕОЛОГИЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются сложные диалектические взаимоотношения между национальной политической идеологией и глобальными процессами в условиях цифровой глобализации. В исследовании раскрывается влияние цифровых технологий, глобальных информационных потоков и транснациональных дискурсов на устойчивость национальной идеологии. Противоречия между национальным и глобальным рассматриваются не как абсолютная противоположность, а как источник развития и адаптации.

Ключевые слова: Цифровая глобализация, национальная политическая идеология, глобальные процессы, диалектические противоречия, национальная идентичность, идеологический суверенитет, политическое сознание, цифровая коммуникация, глобальный дискурс, идеологическая устойчивость, политическая трансформация.

RAQAMLI GLOBALLASHUV SHAROITIDA GLOBAL JARAYONLAR VA MILLIY SIYOSIY MAFKURA MUNOSABATLARINING DIALEKTIK ZIDDIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar, global axborot oqimlari va transmilliy diskurslarning milliy mafkuraviy barqarorlikka ta'siri ochib berilgan. Milliylik va globallik o'rtasidagi ziddiyatlar mutlaq qarama-qarshilik emas, balki rivojlanish va moslashuv manbai sifatida talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamli globallashuv, milliy siyosiy mafkura, global jarayonlar, dialektik qarama-qarshilik, milliy identitet, mafkuraviy suverenitet, siyosiy ong, raqamli kommunikatsiya, global diskurs, mafkuraviy barqarorlik, siyosiy transformatsiya.

Kirish. XXI asr boshlaridan boshlab insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga - raqamli globallashuv davriga qadam qo'ydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivoji, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida dunyo miqyosida iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar tobora o'zaro bog'liq, chegaralarsiz va tezkor tus olmoqda. Ushbu jarayonlar siyosiy ong, ijtimoiy identitet va mafkuraviy maydonning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, milliy siyosiy mafkura oldiga mutlaqo yangi muammolarni qo'yarmoqda. Endilikda milliy mafkura faqat ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi vosita bo'lib qolmay, balki global axborot oqimlari bilan doimiy raqobat va muloqot holatida rivojlanayotgan murakkab ijtimoiy hodisaga aylanmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura nafaqat tashqi mafkuraviy bosimlarga duch kelmoqda, balki ichki transformatsiya jarayonlarini ham boshdan kechirmoqda. Global axborot makonida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy an'analar ko'pincha universalizm, kosmopolitizm va standartlashuv jarayonlari bilan raqobatlashadi. Shu jihatdan, milliy siyosiy mafkura o'zining mazmunini saqlab qolish bilan

birga, zamonaviy raqamli muhit talablariga moslashishga majbur bo'lmoqda. Bu jarayon esa oddiy qarama-qarshilik emas, balki dialektik xarakterga ega bo'lib, o'zida inkor va davomiylik, qarshilik va moslashuv unsurlarini mujassam etadi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun mazkur masala strategik ahamiyat kasb etadi. Milliy siyosiy mafkura jamiyatni birlashtiruvchi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi va davlat taraqqiyotining uzoq muddatli yo'nalishlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois, raqamli globallashuv sharoitida milliy mafkurani himoya qilish, uni zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali samarali targ'ib etish va global jarayonlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. O'zbekiston tajribasida ham milliy g'oya, tarixiy xotira va zamonaviy taraqqiyot g'oyalari uyg'unlashtirishga qaratilgan siyosiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot milliylik va globallik o'rtasidagi ziddiyatlarni mutlaq qarama-qarshilik emas, balki

rivojlanish manbai sifatida talqin qilishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy siyosiy jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi [2].

Metodologiya. Mazkur tadqiqot metodologiyasi raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi murakkab, ko'p qatlamli va ziddiyatli munosabatlarni ilmiy asosda tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda siyosiy mafkura statik hodisa emas, balki tarixiy rivojlanish jarayonida doimiy o'zgarib boruvchi ijtimoiy-siyosiy konstruksiya sifatida talqin qilinadi. Shu bois metodologik yondashuvlar ham faqat tavsifiy emas, balki tushuntiruvchi va tanqidiy xarakterga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Tadqiqotning asosiy metodologik poydevorini dialektik yondashuv tashkil etadi. Dialektika milliylik va globallik o'rtasidagi munosabatlarni mutlaq qarama-qarshilik sifatida emas, balki qarama-qarshiliklar birligi va kurashi orqali rivojlanadigan jarayon sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura bir tomondan global axborot oqimlari, universal qadriyatlar va transmilliy diskurslar ta'siriga duch kelsa, ikkinchi tomondan, o'zining tarixiy-madaniy ildizlari, milliy identitet va siyosiy suverenitetni saqlab qolishga intiladi. Dialektik metod ana shu ikki tendensiyaning o'zaro ta'siri, inkori va davomiyligini tahlil qilish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi [3].

Dialektik yondashuv bilan uzviy bog'liq holda tarixiy-mantiqiy metod qo'llanildi. Ushbu metod milliy siyosiy mafkuraning shakllanishi va transformatsiyasini tarixiy ketma-ketlikda, lekin zamonaviy raqamli globallashuv kontekstida mantiqiy umumlashtirish asosida tahlil qilish imkonini beradi. Tarixiy tahlil orqali milliy mafkuraning klassik shakllari, ularning davlat qurilishi va ijtimoiy barqarorlikdagi roli aniqlanadi, mantiqiy tahlil esa ushbu tajribani bugungi global-raqamli sharoitda qayta talqin qilishga xizmat qiladi. Bu yondashuv milliy mafkuraning global jarayonlarga moslashuvi tarixiy uzviylikni saqlagan holda amalga oshayotganini ko'rsatadi [4].

Tadqiqotda shuningdek qiyosiy (komparativ) tahlil metodidan keng foydalanildi. Ushbu metod orqali turli davlatlar va siyosiy tizimlarda milliy siyosiy mafkura va globallashuv jarayonlari o'rtasidagi munosabatlarni qiyosiy o'rganildi. Qiyosiy tahlil milliy mafkuralarning global bosimlarga qanday javob qaytarayotgani, qaysi mexanizmlar orqali o'z barqarorligini saqlab qolayotgani yoki aksincha, zaiflashayotgani kabi masalalarni ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini solishtirish raqamli globallashuvning mafkuraviy oqibatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi [5].

Bundan tashqari, diskursiv va kontent-tahlil metodlari tadqiqotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli globallashuv sharoitida siyosiy mafkura asosan raqamli kommunikatsiya maydonida -ijtimoiy tarmoqlar, onlayn OAV, siyosiy platformalar va rasmiy davlat resurslari orqali namoyon bo'lmoqda. Diskursiv tahlil ushbu maydonda shakllanayotgan milliy va global mafkuraviy narrativlarni, ularning semantik tuzilishini va ideologik yo'nalishini aniqlashga xizmat qiladi. Kontent-tahlil esa mafkuraviy matnlar, siyosiy bayonotlar va raqamli materiallarda milliylik va globallik elementlarining nisbatini empirik asosda baholash imkonini beradi [6].

Umuman olganda, tanlangan metodologiya tadqiqot mavzusining murakkabligini hisobga olgan holda ko'p darajali va integrativ yondashuvni ta'minlaydi. Dialektik, tarixiy-mantiqiy, qiyosiy va diskursiv metodlarning uyg'un qo'llanilishi milliy siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni nafaqat tavsiflash, balki ularning rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi munosabatlarni murakkab, ko'p qatlamli va dialektik xarakterga ega bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ham ziddiyatli, ham o'zaro bog'liq shaklda namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalar va global axborot makoni milliy mafkuralarning mazmuni, tarqalish mexanizmlari va legitimatsiya shakllarini tubdan o'zgartirmoqda.

Birinchidan, raqamli globallashuv milliy siyosiy mafkuralarning tarqalish chegaralarini kengaytirgan, biroq shu bilan birga ularning mazmuniy barqarorligini sinov ostiga qo'ygan. An'anaviy sharoitda milliy mafkura asosan davlat institutlari, milliy ta'lim tizimi va rasmiy ommaviy axborot vositalari orqali uzatilgan bo'lsa, raqamli muhitda u global platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va transmilliy media tizimlari bilan bir makonda mavjud bo'lib qoldi. Natijada milliy mafkura global diskurslar bilan bevosita raqobatga kirishmoqda. Bu holat A.D.Smith ta'kidlaganidek, milliy identitetning tarixiy xotira va madaniy uzviylikka tayanishi bilan globallashuvning standartlashtiruvchi tendensiyalari o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi [7]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli globallashuv sharoitida milliy mafkura o'zining ramziy va tarixiy asoslarini yo'qotmasdan, yangi kommunikativ shakllarda ifodalanishga intilmoqda.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari global jarayonlarning milliy siyosiy mafkura uchun nafaqat xavf, balki transformatsion imkoniyat ekanini ham ko'rsatdi. Raqamli globallashuv milliy mafkuralarga o'z g'oyalarini global auditoriyaga yetkazish, xalqaro muloqotda ishtirok etish va transmilliy siyosiy maydonda o'z pozitsiyasini mustahkamlash imkonini bermoqda. Biroq bu imkoniyat faqat mafkuraning ichki konseptual yaxlitligi saqlangan taqdirdagina samarali bo'ladi. D. Held va A. McGrew globallashuvni qarama-qarshi tendensiyalar majmui sifatida talqin qilib, milliy va global jarayonlar bir-birini inkor etmasdan, o'zaro ta'sirda rivojlanishini ko'rsatadi [8]. Tadqiqotimiz natijalari ham aynan shu yondashuvni tasdiqlaydi: milliy mafkura global jarayonlar bilan dialektik munosabatda bo'lib, moslashuv va qarshilik orqali yangi sifat bosqichiga o'tmoqda.

Uchinchidan, raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura fragmentatsiya xavfiga duch kelayotgani aniqlandi. Raqamli axborot makonida turli mafkuraviy narrativlar, alternativ talqinlar va individual identitet shakllari tezkor tarqalmoqda. Bu holat yagona mafkuraviy makonning yemirilishiga, siyosiy ongning parokandalashuviga olib kelishi mumkin. Manuel Castellsning ta'kidlashicha, raqamli tarmoqlar sharoitida identitetlar ko'proq "tarmoq identitetlari" shaklida namoyon bo'lib, ular an'anaviy milliy mafkura bilan murakkab munosabatga kirishadi [9]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agar milliy siyosiy mafkura raqamli muhitda o'zining aniq, tushunarli va jozibador diskursini shakllantira olmasa, u global va lokal fragmentar mafkuralar ta'sirida zaiflashishi mumkin.

To'rtinchidan, tadqiqot dialektik qarama-qarshiliklarning asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Ular quyidagilardan iborat:

- milliy suverenitet va global integratsiya o'rtasidagi ziddiyat;
- madaniy o'ziga xoslik va universalizm o'rtasidagi qarama-qarshilik;
- mafkuraviy barqarorlik va raqamli moslashuv o'rtasidagi dialektik taranglik.

Bu ziddiyatlar Hegel dialektikasiga muvofiq tarzda inkor etish emas, balki rivojlanish manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Hegel qarama-qarshiliklar birligi va kurashini ijtimoiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qiladi [10]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy

siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ham xuddi shunday dialektik xarakterga ega bo'lib, ular yangi mafkuraviy sintezlar yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi munosabatlar qat'iy qarama-qarshilik emas, balki doimiy o'zgarib boruvchi dialektik jarayon ekanini ko'rsatadi. Ushbu jarayon milliy mafkura uchun ham xavf, ham imkoniyatlar manbai bo'lib, uning kelajakdagi rivojlanishi aynan shu ziddiyatlarni qanchalik ongli va tizimli boshqarishga bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi munosabatlar oddiy qarama-qarshilik yoki moslashuv modeli bilan izohlanmaydi. Aksincha, bu jarayon murakkab dialektik xarakterga ega bo'lib, unda inkor va davomiylik, qarshilik va integratsiya, barqarorlik va transformatsiya bir vaqtda namoyon bo'ladi. Shu bois mazkur bo'limda olingan natijalar tanqidiy yondashuv asosida baholanib, ularning nazariy va amaliy implikasiyalari tahlil qilinadi.

Avvalo, tadqiqot natijalari milliy siyosiy mafkura globallashuv ta'sirida muqarrar ravishda zaiflashadi, degan deterministik qarashlarni to'liq tasdiqlamasligini ko'rsatadi. Ba'zi globalist nazariyalarda raqamli globallashuv milliy chegaralar va mafkuraviy suverenitetni "eritib yuboruvchi" kuch sifatida talqin qilinadi. Biroq A. D. Smithning milliy identitetga doir qarashlari shuni ko'rsatadiki, milliy mafkura faqat siyosiy institutlarga emas, balki tarixiy xotira, ramzlar va madaniy uzviylikka tayanadi [11]. Tadqiqot natijalari ham aynan shu fikrni tasdiqlaydi: raqamli globallashuv milliy

mafkurani yo'q qilishdan ko'ra, uni yangi ifoda shakllarini izlashga majbur qilmoqda. Tanqidiy jihatdan qaralganda, muammo milliy mafkuraning mavjudligida emas, balki uning raqamli muhitga moslashish darajasida namoyon bo'lmoqda.

Milliy siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham aynan shu tarzda talqin qilinishi lozim. Tanqidiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, agar ushbu ziddiyatlar mutlaq qarama-qarshilik sifatida ko'rilsa, siyosiy qarorlar keskin va biryoqlama tus olishi mumkin. Aksincha, dialektik yondashuv ziddiyatlarni boshqarish, ularni rivojlanish manbaiga aylantirish imkonini beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot raqamli globallashuv sharoitida milliy siyosiy mafkura va global jarayonlar o'rtasidagi munosabatlar oddiy qarama-qarshilik yoki bir tomonlama moslashuv modeli bilan izohlanmasligini ko'rsatadi. Aksincha, ushbu munosabatlar murakkab dialektik xarakterga ega bo'lib, unda inkor va davomiylik, qarshilik va uyg'unlashuv, barqarorlik va transformatsiya jarayonlari bir vaqtda namoyon bo'ladi. Raqamli globallashuv milliy siyosiy mafkurani mutlaq ravishda yo'qotuvchi omil emas, balki uni yangi sifat bosqichiga olib chiqishi mumkin bo'lgan muhit sifatida namoyon bo'lmoqda.

Amaliy nuqtayi nazardan, tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, milliy siyosiy mafkura siyosatini shakllantirishda davlat institutlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati, ta'lim tizimi, ilmiy-intellektual muhit va raqamli media subyektlarining ham faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy siyosat faqat "yuqoridan pastga" yo'nalishda emas, balki jamiyatning turli qatlamlari bilan muloqotga asoslangan holda olib borilgandagina raqamli globallashuv sharoitida samarali bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Castells M. The Power of Identity. -Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
3. Hegel G.W.F. Phenomenology of Spirit. -Oxford: Oxford University Press, 1977. -P. 79-86.
4. Smith A.D. National Identity. -Reno: University of Nevada Press, 1991. -P. 14-22.
5. Held D., McGrew A. Globalization / Anti-Globalization. -Cambridge: Polity Press, 2007. -P. 52-61.
6. Castells M. The Power of Identity. -Oxford: Blackwell Publishing, 2010. -P. 6-18.
7. Smith A.D. National Identity. -Reno: University of Nevada Press, 1991. -B. 14-22.
8. Held D., McGrew A. Globalization / Anti-Globalization. -Cambridge: Polity Press, 2007. -B. 52-61.
9. Castells M. The Power of Identity. -Oxford: Blackwell Publishing, 2010. -B. 6-18.
10. Hegel G.W.F. Phenomenology of Spirit. -Oxford: Oxford University Press, 1977. -B. 79-86.
11. Smith A.D. National Identity. -Reno: University of Nevada Press, 1991. -B. 14-22.
12. Odilovich, Rasulov Rustambek. "Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri." International journal of scientific research 2 (2023): 147-152.
13. Odilovich R. R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – T. 37. – C. 32-41.
14. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo'lgan ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – C. 176-179.
15. Rasulov R. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.4. 1. – C. 169-171.171.
16. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 35-39.